

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**O‘zbekiston Respublikasida
maxsus iqtisodiy zona,
kichik sanoat zonasi,
texnopark va klasterlar
faoliyati**



2022- yil yanvar-dekabr





Ishtirokchilari mavjud MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni*

Erkin iqtisodiy zona — yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o‘rnini bosuvchi, eksportga yo‘naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo‘l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta‘minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra **ishtirokchisi mavjud** jami **20** ta maxsus iqtisodiy zona (keyingi o‘rinlarda – MIZ), **317** ta kichik sanoat zonasi (keyingi o‘rinlarda – KSZ), **21** ta texnopark hamda **506** ta klasterlar (keyingi o‘rinlarda – klaster) mavjud bo‘lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda **679** tani, KSZda **2 796** tani, texnoparklarda **1 077** tani va klasterlarda **509** tani tashkil etdi.




*) *Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar, texnopark va klasterlar soni ularning ishtirokchilari bo‘lgan korxonalar bo‘yicha shakllantirilgan.*

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar kesimida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni*, birlikda

	JAMI	shu jumladan:			
		MIZ	KSZ	texnopark	klaster
O'zbekiston Respublikasi	864	20	317	21	506
Qoraqalpog'iston Respublikasi	88	1	11	1	75
viloyatlar:					
Andijon	59	1	19	1	38
Buxoro	65	2	21	2	40
Jizzax	65	2	22	1	40
Qashqadaryo	51	-	17	1	33
Navoiy	69	1	7	1	60
Namangan	93	2	59	1	31
Samarqand	68	1	26	1	40
Surxondaryo	72	2	25	1	44
Sirdaryo	47	2	11	1	33
Toshkent	43	4	19	1	19
Farg'ona	73	1	62	1	9
Xorazm	61	1	10	6	44
Toshkent sh.	10	-	8	2	-

**) Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar soni ularning ishtirokchilari bo'lgan korxonalar bo'yicha shakllantirilgan.*






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami – **62 716,8** mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **27 252,1** mlrd. so‘mni, KSZda – **6 358,3** mlrd. so‘mni, texnopark – **427,2** mlrd. so‘mni va klasterlarda – **28 679,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi.


Eng yuqori ko‘rsatkich klasterlar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, **28 679,2** mlrd. so‘mni tashkil etgan.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi **43 099,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi, jumladan: MIZda – **18 704,2** mlrd. so‘m, KSZda – **3 964,4** mlrd. so‘m, texnoparklarda – **494,5** mlrd. so‘m va klasterlarda – **19 936,0** mlrd. so‘m.

Texnopark – o‘zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta’limning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarning yanvar – dekabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so‘m



2022- yilning yanvar – dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

	Tarkibidagi korxonalar soni	O‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd.so‘mda
Jami	5 061	62 716,8
shundan:		
MIZ	679	27 252,1
KSZ	2 796	6 358,3
Texnoparklar	1 077	427,2
Klasterlar	509	28 679,2






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

O‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami – **257,2** mlrd.so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **63,3** mlrd.so‘mni, KSZda – **138,2** mlrd.so‘mni, texnoparklarda – **7,9** mlrd. so‘mni, klasterlarda – **47,8** mlrd.so‘mni tashkil qildi.

Eng yuqori ko‘rsatkich KSZ tarkibidagi korxonalar hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, **138,2** mlrd. so‘mni tashkil etgan.



	Tarkibidagi korxonalar soni	O‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd.so‘mda
Jami	5 061	257,2
shundan:		
MIZ	679	63,3
KSZ	2 796	138,2
Texnoparklar	1 077	7,9
Klasterlar	509	47,8

maxsus iqtisodiy zona — tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo‘lgan hudud;






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi

Investitsiya

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami – **7 621,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda **3 735,0** mlrd. so‘mni, KSZda – **1 663,6** mlrd. so‘mni, texnopark – **156,4** mlrd. so‘mni va klasterlarda – **2 066,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi **4 801,6** mlrd. so‘mni, tashkil etdi, shundan: MIZda – **3 319,9** mlrd. so‘m, KSZda – **219,3**, texnoparklarda – **17,5** va klasterlarda – **1 245,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to‘qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining moliyaviy natijalari

Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (-)miqdori jami – **5 377,5** mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: KSZda – **372,8** mlrd. so'mni, texnoparkda – **1 912,0** mlrd. so'mni, MIZda – **2 081,4** mlrd. so'm va klasterlarda – **1 011,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

	Tarkibidagi korxonalar soni	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (-), mlrd. so'mda
Jami	5 061	5 377,5
shundan:		
MIZ	679	2 081,4
KSZ	2 796	372,8
Texnoparklar	1 077	1 912,0
Klasterlar	509	1 011,3



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-)) miqdori jami – **1 925,3** mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – **540,3** mlrd. so'm, KSZda – **258,0** mlrd. so'm, texnoparkda – **12,9** mlrd. so'm va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda **1 114,1** mlrd. so'mni tashkil etgan.





2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining debitor va kreditor qarzdorligi

Debitor qarzdorlik miqdori jami – **16 377,9** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **6 950,7** mlrd. so'mni, KSZda – **1 212,7** mlrd. so'mni, texnopark – **1 004,1** mlrd. so'mni va klasterlarda – **7 210,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kreditor qarzdorlik miqdori jami – **19 474,8** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **8 060,0** mlrd. so'mni, KSZda – **1 302,4** mlrd. so'mni, texnopark – **1 995,5** mlrd. so'mni va klasterlarda – **8 116,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022– yil 1- yanvar holatiga ko'ra, debitor qarzdorlik miqdori jami – **9 121,2** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **4 995,7** mlrd. so'mni, KSZda – **696,8** mlrd. so'mni, texnoparklar – **65,8** mlrd. so'mni va klasterlarda – **3 362,9** mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Kreditor qarzdorlik miqdori jami – **11 959,2** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **5 843,0** mlrd. so'mni, KSZda – **1 126,3** mlrd. so'mni, texnoparklar – **102,7** mlrd. so'mni va klasterlarda – **4 887,2** mlrd. so'mni tashkil qilgan.



MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, debitor va kreditor qarzdorligi, mlrd.so'mda

MIZ tarkibidagi korxonalar

6 950,7

8 060,0

Klaster tarkibidagi korxonalar

7 210,4

8 116,9

KSZ tarkibidagi korxonalar

1 212,7

1 302,4

Texnopark tarkibidagi korxonalar

1 004,1

1 995,5

Kichik sanoat zonasi – Aniq yer uchastkasini o'z ichiga olgan hudud bo'lib, ba'zi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmat)lari hajmi


Respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmat)lari miqdori jami – **12 463,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **5 290,6** mlrd. so‘mni, KSZda – **1 273,7** mlrd. so‘mni, texnopark – **139,6** mlrd. so‘mni va klasterlarda – **5 759,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo‘yicha respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmat)lari hajmi, mlrd. so‘mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, % da



- Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
- Metallurgiya sanoati
- Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
- Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish
- Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish
- To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish
- Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish
- Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
- Boshqalar

2022- yil yanvar-dekabr oylarida KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, % da



- Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish
- To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
- Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish
- Kiyim ishlab chiqarish
- Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish
- Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
- Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish
- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish
- Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish
- Boshqalar

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud.

Kichik sanoat zonasi – aniq yer uchastkasini o'z ichiga olgan hudud bo'lib, ba'zi hollarda – muhandislik-texnik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish maydonlari.

Texnopark – o'zaro, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik qiluvchi, tadbirkorlik, investitsiya faoliyatini va ilmiy faoliyatni yuritish maqsadida zamonaviy texnologik va tashkiliy muhitni shakllantiruvchi ilm-fan va ta'limning tijorat va notijorat tashkilotlari, moliya institutlari va tadbirkorlarning integratsiyalashuvi shakli.

Klaster – meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi resurslarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik va boshqa komplekslarni yaratish, raqobatbardosh yuqori texnologiyali va eksportbop to'qimachilik, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish shakli.

Maxsus ilmiy-texnologik zona – innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida ilmiy tashkilotlar va ilmiy faoliyat sohasidagi boshqa tashkilotlar (texnologik parklar, texnologiyalarni tarqatish (texnologiyalar transferi) markazlari, innovatsion klasterlar, venchur fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar) to'plangan hudud.

Maxsus sanoat zonasi – boshqaruv, xo'jalik va moliyaviy faoliyatning alohida rejimi joriy etiladigan hudud. Maxsus sanoat zonalari zarur ma'muriy, ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani barpo etish uchun yer uchastkalarini ajratish orqali shakllantiriladigan xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish zonalarini o'z ichiga oladi.